


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**70220503 – Tasavvuf germeneytikasi  
magistratura mutaxassisligining**

**MALAKA TALABLARI**

Toshkent-2024



*SB*

## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Toshkent davlat sharqshunoslik univertiteti;

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil «01» 08 dagi 277 sonli buyrug‘i bilan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standard. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<b>Umumiy tavsifi</b> .....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlari tasnifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	6
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar</b> .....	7
3.	<b>Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar</b> .....	9
4.	<b>Fanlar katalogining tuzilishi</b> .....	10
	<b>Bibliografik ma'lumotlar</b> .....	11
	<b>Kelishuv varog'i</b> .....	12

## **1. Umumiy tavsifi**

**70220503 – Tasavvuf germenevtikasi** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **70220503 – Tasavvuf germenevtikasi** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

**70220503 – Tasavvuf germenevtikasi** – "Gumanitar fanlar" sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlar hamda sharq va g'arb tillarini o'qitish, ilmiy-falsafiy hamda tarix sohasi bilan bog'liq akademik, ilmiy-tadqiqot hamda ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari va tashkilotlari; davlat boshqaruvi organlari; xalqaro tashkilotlar; siyosiy partiyalar; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari; tashqi ishlar organlari; arxiv, qo'lyozma fondlari, axborot-resurs markazlari, nashriyotlar, ommaviy axborot vositalari, xorijiy mamlakatlar bilan bog'liq nodavlat va notijorat tashkilotlar; diniy tashkilotlar, xususiyligi istalgan shaklda bo'lgan ishlab chiqarish birlashmalarida kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlar hamda sharq va g'arb tillarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida Sharq falsafasi, islomshunoslik va manbashunoslik sohalarida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;

davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya boshqaruvi organlarida boshqaruv jarayonlari;

diniy tashkilotlarning boshqaruv organlarida faoliyat;

iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiatsiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, firma, kompaniyalar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalarida tarjimonlik va ish yuritishni tashkil etish va boshqarish jarayonlari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

ilmiy tadqiqot faoliyati;

pedagogik faoliyat;

madaniyatlararo muloqot faoliyati;

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

diniy-ma'rifiy faoliyat;

- turli xizmatlar ko'rsatish faoliyati.

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari:**

70220503 – *Tasavvuf germenektivikasi* mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalar, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy tadqiqot faoliyatida:**

mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;

Respublikada mavjud tasavvuf tarixi, falsafasi va adabiyotiga oid qo'lyozma va toshbosma manbalarning birlamchi tavsifi va elektron katalogini yaratish, kitoblarga annotatsiya yozish, qo'lyozma asarlarni tabdil va tarjima qilish hamda ularning foto va elektron nusxalarini tayyorlashi;

Mazkur yo'nalishda o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha mavjud manbalar, qo'lyozma va toshbosma asarlar, arxiv hujjatlari, madaniy meros obyektlarini o'rganib, loyiha maqsadi va vazifalariga muvofiq ular ustida tadqiqotlar olib borishi;

Islom madaniyati, tasavvuf tarixi, falsafasi, adabiyoti va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlari bo'yicha dolzarb yangi nazariy va amaliy sohalaridagi ilmiy-tadqiqot natijalari aks etgan ilmiy adabiyotlar ustida doimiy ishlab borishi;

muammolarni izchil o'rganish, istiqbol rejaları asosida ularni tadqiqot obyektiga aylantirishi;

mintaqa sivilizasion tarixiy jarayonlarining umumiy va xos qonuniyatlarini ochishga xizmat qiladigan manbahunoslik, falsafiy-nazariy metodologik masalalar yuzasidan o'quv-uslubiy jarayonlarni ta'minlash bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar yaratish, nazariy tadqiqot ishlarini amalga oshirish va natijalarini o'quv jarayoniga tatbiq etishni ta'minlashi;

diniy-falsafiy matnlar, arxiv materiallari, qo'lyozmalar matnshunosligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi;

tadqiqotlarda qo'llangan metodologik yondashuv tamoyillarini izchil rivojlantirish, ilmiy obyektivlikni ta'minlash asosida madaniy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar masalalari bo'yicha tasavvurga ega bo'lishi;

zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasi, turli tadqiqot metodlari va metodologiyalarining qiyosiy tahlili, hozirgi zamon falsafa fanidagi turli nazariy qarashlar, islomshunoslikning yetakchi konsepsiyalari, ilg'or nazariyotchi islomshunos va sharqshunoslarning asarlaridan tanqidiy va tahliliy asosda foydalanish malakasiga ega bo'lishi;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar bo'yicha kerakli ilmiy sharhlarni ishlab chiqish va istiqbolni belgilovchi rejalar tuzish malakasini shakllantirish;

ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etish;

ilmiy jurnallarga soha bo'yicha ilmiy maqolalar tayyorlash;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlar bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

#### **Madaniyatlararo muloqot faoliyatida:**

madaniyatlararo muloqotda faol qatnashish, tashkiliy jarayonlarda moderator vazifasini bajarish;

globallashuv jarayonida milliy-madaniy meros va diniy-milliy qadriyatlarni targ'ib qilish;

millatlararo va madaniyatlararo aloqalar rivojida o'quv sohasi yo'nalishlari bo'yicha faoliyat olib borish;

davlat va jamoat tashkilotlarida referent, bo'lim yetakchi xodimlari va bo'lim boshlig'i hamda ularga tenglashtirilgan lavozimlarda kasbiy faoliyat yuritish;

hukumat tadbirlari, rasmiy yig'inlarda, uchrashuvlar va sayyohlik sohasida gid hamrohligi ishlarini amalga oshirish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv hamda konsalting xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib

borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish;

qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

mutaxassislik bo'yicha oila, gender, demografik siyosat, bandlik munosabatlari, iqtisodiy-ijtimoiy va demografik jarayonlarga baho berish hamda jarayonlar prognozini ishlab chiqish;

sharq va g'arb tillari bo'yicha ilmiy va badiiy tarjima ishlarini tashkil etish va amalga oshirish.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy-ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'rganilgan sharq va g'arb tillaridan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasb faoliyatida foydalana bilishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovasion yondashishni bilish;  
ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish va loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun takliflar kiritish va yangi loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

falsafiy tadqiqotlar metodologiyasi, ilmiy tadqiqotlar asoslari, tadqiqot jarayonini tashkil qilish, ilmiy xulosalar yaratish va olingan natijalarni sohadagi yangiliklar bilan umumlashtirish, empirik va nazariy tadqiqot usullarini farqlash, kengaytirilgan ko'p bosqichli fundamental va amaliy tadqiqot rejalarini ishlab chiqish, innovasion loyihalar sifatida moliyalashtirishga takliflar yaratish;

mintaqa xalqlari tarixining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslari bir va mushtarakligini nazariy jihatdan idrok etish;

mintaqa tarixining qadimiy va o'rta asrlar davrlari moddiy va yozma manbalari, ularning ilmiy talqinlari muammolarini hal qilish;

falsafiy metod va metodologiyalar rivojlanishidagi asosiy bosqichlarga oid ma'lumotga ega bo'lish;

falsafiy tafakkurning o'ziga xosligi va tamoyillari, fanlararo yondashishdan foydalanish;

sivilizasion jarayonlarning umumiy va xos qonuniyatlarini o'rganish;

mintaqa sivilizatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy asoslari; mintqa sivilizatsiyasining ma'naviy asoslari; mintqa sivilizatsiyasining etnik, milliy va diniy xususiyatlari; mintqa sivilizatsiyasini yaratgan xalqlar tarixining mushtarakligini talqin etish;

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo va Musulmon Sharqida yaratilgan tasavvufiy merosni zamonaviy tadqiqot usullari asosida o'rganish va tadqiq etish;

Tasavvuf falsafasining umuminsoniy va ma'rifiy mohiyatini tadqiq etish va ochib berish;

Tasavvuf falsafasini germenevtik tahlil va talqin etish;

Tasavvuf adabiyotini germenevtik tahlil va talqin etish;

Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlarini tarixiy va tasavvufiy manbalar asosida o'rganish;

Tasavvuf ta'limotining asoslarini jahon va milliy dinlar, diniy-falsafiy ta'limotlar bilan qiyosiy usulda o'rganish;

Tasavvuf ta'limotini islom dinidagi aqidaviy mazhablar hamda tasavvuf tariqatlari bilan o'zaro komparativistik usulda o'rganish;

Tasavvuf ta'limotining ruhiy tarbiya bilan bog'liq jihatlarini zamonaviy tadqiqot usullari vositasida germenevtik tahlil qilish;

Tasavvuf ta'limotining teologik jihatlarini zamonaviy tadqiqot usullari vositasida germenevtik tahlil qilish;

O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida arab, forsiy va turkiy tillarda yaratilgan tasavvuf badiiy adabiyoti (she'riyati)ning gumanistik mohiyati hamda estetik ahamiyatini tadqiq etish va ochib berish;

Tasavvuf manbashunosligining xolisona, haqqoniy metodologik asoslarini o'rgatish;



Markaziy Osiyo va xorijiy mamlakatlardagi qo'lyozma fondlar, qo'lyozma fondlarining birlamchi ishlov usullari; tavsif, tasnif, fihrist, katalog va boshqa bosqichlarda ishlash usullarini o'zlashtirish;

mutaxassislikka oid matnlarni o'qish, tarjima va tahlil qilish, mutaxassislikka oid terminlarni yig'ish, tasniflash va izohlash usullarini qo'llash;

ma'naviy o'tmishga oid mumtoz ilmiy-falsafiy merosni tasnifiy va talqiniy tarzda tahlil qilish;

Tasavvuf manbalarining adabiy-badiiy, axloqiy-falsafiy va ageografik yo'nalishlari bo'yicha izlanish va tadqiqotlar olib borish;

Tasavvuf tarixi va falsafasiga oid qo'lyozma yodgorliklariga tasnifiy yondashish tamoyillaridan foydalanish;

Tasavvufiy qo'lyozma meros bilan ishlash texnologiyasini o'zlashtirish: birlamchi ishlov, kataloglashtirish, matnshunoslik, manbashunoslik va germenevtik talqin malakalarini hosil qilish;

o'qitilayotgan matndagi ilmiy soha terminlarini to'la egallash va amalda qo'llash malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### **3. Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar:**

Ilmiy faoliyat ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida atrof-muhit muhofazasi sohasidagi ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

*Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashga bo'lgan talablar:* mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilish;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish;

talabalarga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

*Ilmiy pedagogik ishlar:*

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

*Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish):*

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.

#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.R	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semest r
<b>70220503 – Tasavvuf germenevtikasi</b>					
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1080</b>	<b>36</b>	
1.01	AITM 105	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MNM11-308	Mutaxassislikning nazariy masalalari	240	8	1,2
1.03	TFA1104	Tasavvufshunoslik asoslari	120	4	1
1.04	TF1104	Tasavvuf falsafasi	120	4	1
1.05	TM1204	Tasavvuf manbashunosligi	120	4	2
1.06	TTTSHJ1204	Tasavvuf tarixi va tariqatlarining shakllanish jarayonlari	120	4	2
1.07	TQOTQA1204	Tasavvuf qo'lyozmalarini o'qish va talqin qilish amaliyoti	120	4	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>720</b>	<b>32</b>	
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
	<b>Kvalifikatsiya</b>	Tasavvufshunos-manbashunos, tadqiqotchi-pedagog (sharq tillari bilan)			
<b>3.00</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1-4</b>
		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	900	30	1,2,3,4
		Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasi	900	30	1,2,3,4
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## BIBLIOGRAFIK ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, texnika, metodologiya, tadqiqot, avtomatlashtirish, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya, virtual laboratoriya, tarixiy rivojlanish bosqichlari, tarixshunoslik, manbashunoslik, tarixiy manbashunoslik, amaliy va nazariy manbashunoslik, etnografiya, etnologiya va ijtimoiy antropologiya, qadimiy yozuvlari, yozuv madaniyati, kataloglar tuzish, arxeografiya, paleografiya, arxivshunoslik, bibliografiya, epigrafika, kriptografiya, numizmatika, germenevtika, diplomatika, konsepsiya, ijtimoiy-siyosiy rivojlanish, nomadizm, tarix falsafasi, etnologiya, mustamlaka siyosati, mustamlakachilik, neokolonializm, milliy-ozodlik harakatlari, imperializm, kapitalizm genezisi, ko'pukladli iqtisod, ijtimoiy-sinfy tarkib, agrar munosabatlar, revolyusion harakatlar, mustamlakachilikning qulashi, mafkuraviy va siyosiy omillar, qo'lyozma yodgorliklar, tarixning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolari, zamonaviy tarixshunoslik, yevrotsentrizm, modernizasion dunyo, sharqsentrizm, avtohtonizm, falsifikatsiya, tendension yondoshuv, konsepsiyalar, interpretatsiya, traybalizm, populizm.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLGAN:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Rektor  G.Sh.Rixsiyeva

2024-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

m.o'.



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq  
etish markazi

Direktor  B.Boitasoyev

2024- yil \_\_\_\_\_

m.o'.



O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasi Abu Rayhon Beruniy  
nomidagi Sharqshunoslik instituti

Direktor  B.Abduxalimov

2024-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

m.o'.



Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti

Rektor  I.Madjidov

2024-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

m.o'.



O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi

Rektor  U. G'afurov

2024-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

m.o'.



**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**  
**70220503 – Tasavvuf germenevtikasi magistratura mutaxassisligi malaka talablarining ishlab**  
**chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“    ”                      2024-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti direktori B.Abduxalimov, O'zbekiston Milliy universiteti rektori I.Madjidov, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori G.Rixsiyeva birgalikda TDSHUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

*70220503 – Tasavvuf germenevtikasi magistratura mutaxassisligi*

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimiin 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, 2019-yil 17-iyundagi “2019/2020-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi PQ-4359-son, 2020-yil 16-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4680-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

/O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik  
instituti direktori



B. Abduxalimov

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti rektori



I. Madjidov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
rektori

G. Rixsiyeva